



O'QUV JARAYONIDA INNOVATION TEXNOLOGIYALARNING
QO'LLASHNING PEDAGOGIK MOHIYATI

Kushbakova Barno Batirkulovna

Jizzax politexnika instituti

*“Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalari
texnologiyasi” kafedrasi assistenti*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishning pedagogik mohiyati, ularning turlari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Innovatsion texnologiyalar tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *innovatsion texnologiyalar, o'quv jarayoni, pedagogik yondashuv, interaktiv metodlar, masofaviy ta'lim*

Аннотация. *В статье раскрывается педагогическая сущность внедрения инновационных технологий в учебный процесс. Рассматриваются их виды и значимость для формирования профессиональных компетенций.*

Ключевые слова: *инновационные технологии, учебный процесс, педагогический подход, интерактивные методы, дистанционное образование.*

Abstract. *The article reveals the pedagogical essence of implementing innovative technologies in the educational process. It discusses their types and role in developing students' competencies.*

Keywords: *innovative technologies, educational process, pedagogical approach, interactive methods, distance learning*

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarda kasbiy va ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunda innovatsion ta'lim texnologiyalarining joriy etilishi — ta'lim jarayonining metodik asoslarini zamonaviylashtirish va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni ta'minlashning eng muhim vositasidir. Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga tadbiq etishning pedagogik mohiyati, turlari va ularni amaliyotga joriy etish shart-sharoitlari keng yoritib beriladi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari – bu ta'lim jarayoniga yangi yondashuvlar, ilg'or metodlar, axborot-kommunikatsiya vositalari, integratsiyalashgan resurslar va interaktiv faoliyatlar asosida o'quvchilarni faol bilim egallashga yo'naltiruvchi tizimdir. Bu texnologiyalar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni





kuchaytiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, qaror qabul qilish qobiliyatini, muammoli vaziyatlarga yangicha yondashuvni shakllantiradi [2].

Innovatsion texnologiyalar shuningdek, konstruktiv yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi, bu orqali o'quvchilar bilimlarni mustaqil izlab topadi, ularni qayta ishlaydi va real hayotdagi vaziyatlarga tatbiq etadi. Bu texnologiyalar samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, ular o'quvchilarning o'zini o'zi baholash, tahlil qilish, fikr almashish va jamoada ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Innovatsion texnologiyalar turli shakllarda namoyon bo'ladi. Jumladan:

- Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT): elektron darsliklar, videodarslar, raqamli laboratoriyalar;
- Interaktiv metodlar: "Case study", "Cluster", "Brainstorming", "Debate", "Portfolio" va boshqalar;
- Masofaviy va aralash o'qitish: Moodle, Google Classroom, Zoom, Teams kabi platformalar;
- Trening va simulyatsiyalar: real stsenariylar asosida virtual modellashtirish imkoniyatlari [4, 5].

Pedagogik mohiyat va samaradorlik omillari. Innovatsion texnologiyalar quyidagi pedagogik maqsadlarga xizmat qiladi:

- Mustaqil va tanqidiy fikrlashni shakllantirish;
- Ta'lim sifatini va samaradorligini oshirish;
- O'quvchilarning o'zlashtirish darajasini monitoring qilish;
- O'quv faoliyatini differensiallashtirish.

Bundan tashqari, innovatsion texnologiyalar o'qituvchilarga o'zlarining metodik repertuarini boyitish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytirish, ta'lim mazmunini differensiallashtirish va inkluzivlik prinsiplarini qo'llash imkoniyatini beradi. Shuningdek, bu texnologiyalar orqali ta'lim jarayonining monitoringi va sifat tahlili avtomatlashtiriladi, bu esa ta'lim samaradorligini oshiradi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni samarali joriy etish uchun texnik baza, o'qituvchining kompetensiyasi, pedagogik dizayn va raqamli resurslarning mavjudligi muhim ahamiyatga ega.

Innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish – bu ta'limning metodologik asoslarini yangilash, o'quvchini bilish faoliyatining markaziga qo'yish va mustaqil o'rganishga yo'naltirish demakdir. Ta'lim sifati, motivatsiyasi va kasbiy ko'nikmalar innovatsion yondashuvlar orqali samarali shakllantiriladi. Shunday ekan, pedagoglar innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirib, ularni amaliyotda tatbiq eta oladigan darajaga yetkazilishi muhim [3].



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



Shunday qilib, innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiyalash – bu pedagogik faoliyatning yangi bosqichga o'tishini anglatadi. O'quvchilarda zamonaviy kompetensiyalar – muammoli vaziyatlarni hal qilish, raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuv kabi sifatlarni rivojlantirish orqali ularning kelajakdagi kasbiy tayyorgarligi mustahkamlanadi. Bu esa zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos kadrlar yetishtirishning asosiy omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Makhkamov N. (2022). Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Fan.
2. Jalolov J. (2021). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: Ilm Ziyo.
3. UNESCO (2020). ICT in Education. <https://unesdoc.unesco.org>
4. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). A taxonomy for learning, teaching, and assessing. New York: Longman.
5. OECD (2022). Teaching and Learning in the Digital Age. <https://www.oecd.org/education>